

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ
ПОДСЧЕТА

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKHNICHKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKHNICHKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashevayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	



IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORI SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI



Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti,
Universitet O'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i

Annotatsiya: Agrar sektor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, yangi ish o'rinnarini yaratish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Shu bilan birga, agrar sektorda salohiyatni oshirish, tarmoqda zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqlim o'zgarishlari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muammolar bugungi kunda o'z yechimini kutmoqda. Mazkur maqolada agrar sektor salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari va ularni amalga oshirish bo'yicha takliflar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, agrar sektor, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, salohiyat, zamonaviy texnika va texnologiyalar, iqlim, ishlab chiqarish samaradorligi.

Abstract: The agrarian sector is one of the main branches of the economy, contributing to the sustainable development of the national economy by supplying the population with high-quality food products, creating new jobs, and increasing the production of agricultural goods. At the same time, there are current challenges in the agrarian sector such as enhancing potential, introducing modern machinery and technologies, addressing climate change, and improving production efficiency. This article presents the main directions for increasing the potential of the agrarian sector and provides proposals for their implementation.

Key words: national economy, agrarian sector, agricultural products, potential, modern machinery and technologies, climate, production efficiency.

Аннотация: Аграрный сектор является одним из основных секторов экономики, способствующим устойчивому развитию национальной экономики путем обеспечения населения качественными продуктами питания, создания новых рабочих мест и увеличения производства сельскохозяйственной продукции. В то же время, такие проблемы, как повышение потенциала аграрного сектора, внедрение современной техники и технологий, изменение климата и повышение эффективности производства, в настоящее время ждут своего решения. В данной статье изложены основные направления повышения потенциала аграрного сектора и предложения по их реализации.

Ключевые слова: национальная экономика, аграрный сектор, сельскохозяйственная продукция, потенциал, современная техника и технологии, климат, эффективность производства.

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanishida qishloq xo'jaligi oziq-ovqat sanoati uchun xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, bir-biri bilan bog'liq soha va tarmoqlarning majmui bo'lib, bugungi kunda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Agrar tarmoqda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallahib, cheklangan yer va suv resurslaridan, kapital hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalib bormoqda. Jahon aholisining yildan-yilga muttasil o'sib borayotganini inobatga olsak, kelgusida qishloq



xo'jaligining barqaror o'sishini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish, aholini xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va bunda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yanada yuksaltirishda yetakchi o'rinni egallagan fermer xo'jaliklari faoliyatini barqaror rivojlantirishni taqozo etadi.

Jahon amaliyotida ham bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda qishloq xo'jaligini barqaror iqtisodiy rivojlantirishga oid nazariy-metodologik muammolarni o'rganish va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, bunda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, tarmoqqa innovatsion texnologiyalarni joriy etish, investitsiyalar hajmini ko'paytirish va eng muhimi — natijadorlikni ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari, obyektiv zarurligi, omillari, bosqichlari va muntazam, uzlusiz rivojlantirish g'oyalari, nazariy hamda uslubiy asoslari xorijlik olimlardan E. Kasl, M. Byekyer, J. Pretty, P. C. Kesavan, M. S. Swaminathan, R. Costanza, C. B. Flora, R. A. Cramb, C. Leeuwis, N. P. Makarov, A. A. Nikitina, S. G. Xanmagomedov, A. A. Anfinogenova, N. A. Yakovenko, I. G. Ushachev, A. G. Papsov, N. K. Dolgushkin, A. F. Serkov, V. V. Maslova va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan [1].

Mahalliy olimlarimizdan O'zbekiston sharoitida agrobiznes tarmoqlarini isloh qilish va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha A. M. Jo'rayev, Ch. Murodov, T. Sh. Shodihev, O'. A. Saydahmedov, U. A. Nazarova, T. X. Farmonov, U. V. G'afurov, A. A. Radjapov, F. T. Egamberdiyev, O'. P. Umurzoqov va boshqalar chuqur ilmiy izlanishlar olib borganlar [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, guruhlash, taqqoslash, statistik tahlil, omilli tahlil, ekspert baholash hamda tanlanma kuzatuv usullaridan foydalilanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirish haqida gap ketganda, eng avvalo "salohiyat", "iqtisodiy salohiyat" tushunchalarining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. "Salohiyat" tushunchasi arabchada "qobiliyat", ruschada "потенциал" so'zları bo'lib, mazkur tushuncha alohida shaxsga nisbatan qo'llanganda "qobiliyat" hisoblanib, uning eng yuqori cho'qqisi "iste'dod" va "daholik"dir. Mazkur tushuncha iqtisodiy jihatdan olib qaralganda esa bu ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanish darajasi, iqtisodiy resurslar va ularning samaradorligi bilan bog'liq bo'lgan mamlakat yoki mintaqaning imkoniyatlari yig'indisidir. Uning yuqori cho'qqisi "yuksalish", "taraqqiyot" demakdir [3].

Iqtisodiy salohiyat bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ko'p sonli adabiyotlar tahlili uning mazmunini uch xil talqin bo'yicha tizimlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Bir guruh olimlar iqtisodiy salohiyatni ma'lum vazifalarni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin qilishsa, ikkinchi guruh olimlar uni resurs tomonidan ta'riflashga uringan, uchinchi guruh olimlar esa iqtisodiy salohiyatni mamlakatning imkoniyatlari bilan bog'lashgan [4].

Rus iqtisodchisi B. M. Mochalov iqtisodiy salohiyatni xalq xo'jaligi tarmoqlarining sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qurilish va aholiga xizmat ko'rsatish qobiliyati deb ta'riflaydi [5]. Mazkur ta'rifa iqtisodiy salohiyatning faqatgina bir jihat, ya'ni xo'jalik mexanizmining ishlab chiqarish funksiyasini bajarish qobiliyati keltirilgan. Belaruslik olim V. N. Shimov esa iqtisodiy salohiyatni aholi turmush darajasini oshirish maqsadida mamlakatning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga bo'lgan maksimal qobiliyati sifatida tushuntiradi [6].


Taniqli olim L. I. Abalkinning ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy salohiyat jami resurslar majmuuni yagona ko'rsatkichda aks ettiruvchi kategoriyalidir [7]. Umuman olganda, bu kabi ta'riflarni ko'plab keltirish mumkin.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi agrosanoat majmuuning rivojlanish darajasi bilan ham belgilanadi. Shu ma'noda, Respublika agrar tarmog'i salohiyatlari imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga erishish iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish uchun arzon ishlab chiqarish vositalari va yuqori samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb qilish lozim. Bu esa foyda miqdorini oshirishga, umuman, moliyaviy ahvolning barqarorlashishiga olib keladi [8–12].

Agrar iqtisodiy salohiyat — bu qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy va raqobatbardosh rivojlanishi, samaradorlik hamda davlat va jamiyat, iste'molchilar uchun iqtisodiy naf keltirishni ta'minlashdir. Bu tushuncha faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishini emas, balki butun agrosanoat majmuuni, ya'ni qayta ishlash, saqlash, tarqatish, savdo va mahsulotni iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan jarayonni zanjir sifatida qamrab oladi [13–18].



Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning asosiy unsurlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Agrar iqtisodiy salohiyat unsurlari

Yuqorida chizmada keltirilgan unsurlarga kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, eng avvalo iqtisodiy salohiyat samaradorlik ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bunda qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan samarali foydalanish, global iqlim o'zgarishlari sharoitida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy va yuqori unumdar texnika hamda texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdarligini oshirish masalalarini hal qilish lozim.

Ikkinci navbatda bozor va raqobatbardoshlik masalalari chuqur o'rganilishi hamda tahlil qilinishi lozim. Ya'ni bunda bozorga kirish imkoniyatlari, mahsulotni ichki va tashqi bozorlarga yetkazishning zamonaviy logistik infratuzilmasi, marketing va brend masalalari, mahsulotni sotish kanallari, eksport salohiyati kabi jihatlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlar hamda sanitariya-epidemiologiya talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish choralar ko'rildi.

Navbatdagi galda innovatsiyalardan samarali foydalanish, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilishni tezlashtirish muhim ahamiyatga ega. Xususan, qishloq xo'jaligi ekinlarining tezpishar, qurg'oqchilikka va turli kasalliklarga chidamli yangi navlarini yaratish, suvni tejovchi texnologiyalardan foydalanish agrar salohiyatni mustahkamlashda alohida o'r'in tutadi [19–24].

Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini belgilashda davlatning iqtisodiy siyosati ham muhim omil bo'lib, bunda mamlakatdagi yer-suv munosabatlari, soliq tizimi, pul-kredit siyosati va sug'urta xizmatlari asosiy masalalardan hisoblanadi.

Yana bir muhim masala ijtimoiy-ekologik barqarorlikdir. Atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq unumdarligini saqlash, suv resurslarini isrof qilmaslik, bioxilma-xillikni muhofaza qilish, shuningdek, iste'molchilarni xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash agrar siyosatning asosiy mezonlari sifatida qaraladi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyotining agrar sektori salohiyatini rivojlantirishda quyidagi to'siqlar mavjud bo'lishi mumkin:

- global iqlim o'zgarishlari;
- suv taqsimoti va sug'orish muammolari;
- eskirgan infratuzilma va saqlash tizimidagi muammolar;
- moliyaviy resurslarning yetishmasligi;
- boshqaruva va kadrlar bilan bog'liq masalalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, agrar iqtisodiy salohiyat — bu faqat hosil miqdorini oshirish emas, balki qishloq xo'jaligini zamonaviy, unumdar, ekologik toza mahsulotlar yetishtiruvchi va ijtimoiy jihatdan ham muhim bo'lgan tarmoqqa aylantirish demakdir. Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Agrar sohada innovatsion texnologiyalarni joriy etish, "aqlli sug'orish" tizimlaridan foydalanish, qishloq xo'jaligi dronlaridan keng foydalanish va ekinlar holatini monitoring qilish.

Global iqlim o'zgarishlari qurg'oqchilik, zilzila va boshqa tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelayotgani sababli qishloq xo'jaligida adaptiv usullarni qo'llash hamda agroekologik yondashuvlarni rivojlantirish.



Agrar ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, xususan quritilgan meva-sabzavot va konserva mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish, shuningdek, agroturizmni rivojlantirish.

Agrar tarmoqda kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, agrar sohada universitetlar va ilmiy markazlarning hamkorligini kuchaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish, agrar ishlab chiqarishni moliyalashtirish, agrosug'urta xizmatlarini yo'lga qo'yish va infratuzilmani yaxshilash.

Yuqorida keltirilgan ustuvor yo'naliishlarning izchil amalga oshirilishi agrar sektor salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Эффективное фермерское хозяйствование // Э.Касл, М.Бекер; Пер. с англ. и предисловие А.А.Белозерцева. – М.: Агропромиздат, 1991. – 496 с.
2. Сайдахмедов Ў.А., Назарова У.А. Республика аграр ишлаб чиқариш соҳасини бошқаришнинг иқтисодий механизmlари асослари. Монография.-Т.: "Молия-Иқтисод". 2014.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Salohiyat>
4. D.Sh.Odinayev. Iqtisodiy salohiyat tushunchasi, tarkibi va shakllanish omillari. "Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnal. 3/2022, may-iyun. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/27_Odinayev.pdf
5. Б.М.Мочалов, Ф.М.Русинов и Д.К.Шевченко. "Экономический потенциал развитого социализма" // под ред. Б.М.Мочалова. М.: "Экономика" (1982): стр. 73.
6. Шимов В.Н. Национальная экономика Беларусь: учебник. Минск: БГЭУ, 2009.
7. Л.И.Абалкин. Экономическая энциклопедия // М.: Экономика, 1999.
8. Adashaliyevich, B. M. (2024, January). THEORETICAL PRINCIPLES OF THE STUDY OF AGRICULTURAL ACTIVITY IN ENSURING STATE ECONOMIC SECURITY. In INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 16, pp. 84-89).
9. Bekmirzayev, M. A. (1788). Ensuring stability of agriculture based on the development of the farm economy of the republic of Uzbekistan. Indo-Asian Journal of Multidisciplinary Research (IAJMR). pg, 1793.
10. Bekmirzayev, M., & Mirzatov, B. (2023). Issues of econometric modeling and forecasting of sustainable development of agribusiness subjects. In E3S Web of Conferences (Vol. 452, p. 01022). EDP Sciences.
11. Bekmirzayev, M. A. (2023). O'ZBEKİSTONNING "YASHIL IQTISODIY STRATEGIYASI" VA UNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.
12. Bekmirzayev, M. (2024). Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi faoliyatining nazariy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari.
13. Adashalievich, B. M. (2019). Socioeconomic importance of sustainable farming development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9(7), 76-82.
14. Бекмирзаев, М. А., & Иномов, Ж. Г. (2016). Развитие сельского хозяйства в Республике Узбекистан и результаты его реформирования. In СОВРЕМЕННОЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ И НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ПРИРОДОПОЛЬЗОВАНИЯ (pp. 3615-3618).
15. Mahkamov, I., Bekmirzayev, M., & Madaminjonov, O. (2019). PRODUCTION OF FOOD AND VEGETABLE PRODUCTS AND DEVELOPMENT OF RECYCLING. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(4), 123-128.
16. Maxkamov, I., Bekmirzayev, M., & Madaminjonov, O. (2019). Prospects for the development of growing and processing of fruit and vegetable products. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(1), 92-97.
17. Бекмирзаев, М. А., & Иномов, Ж. Г. (2016). ОБЕСПЕЧЕНИЕ РЕСУРСАМИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ. In ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ АГРАРИЕВ (pp. 1115-1118).
18. Бекмирзаев, М. А. (2022). ФЕРМЕР ХЎЖАЛИКЛАРИНИ БАРҚАРОР ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ ПРОГНОЗЛАШ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <http://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2207>
19. Adashaliyevich, B. M. (2022). Specific Features of Innovative Development of Private Entrepreneurship in the Context of Digitalization of the Economy. European Scholar Journal, 3(2), 88-93.
20. Adashaliyevich, B. M. (2021). Development of Agricultural Infrastructure and Material Logistics Support of Farms. Journal of Economics, Finance and Management Studies, 1762-1766.
21. Adashaliyevich, B. M. The econometric analysis and forecast of factors of sustainable economic development of agribusiness entities. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Volume, 6, 351-357.
22. Adashaliyevich, B. M. (2022, November). MODELING AND FORECASTING SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT OF AGRIBUSINESS ENTITIES. In Conference Zone (pp. 272-283).
23. Matkarimov, K., Mahkamov, I., & Bekmirzaev, M. (2016). Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда қишлоқ хўжалиги иқтисодиётининг истиқболи. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (6), 416-421.
24. Adashaliyevich, B. M. (2023). THEORETICAL BASIS OF AGROLOGISTIC SUPPLY.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100